O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Termiz davlat pedagogika instituti
rektori _____ A.B. Xasanov
“28” avgust 2026-yil

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha doktorantura (DSc) ga kirish imtihon

DASTURI

Termiz–2026

ANNOTATSIYA

Mazkur dasturdan 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha doktorantura (DSc) ga topshirishda foydalaniladi. Imtihon jarayonida mutaxassislar talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini, uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu asosida bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog'lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo'lib, unda ta'lim nazariyasining umumiy masalalari bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar, kasbiy va pedagogik kompetensiyaga doir imtihon savollaridan namunalar tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar: p.f.b.f.d. (PhD), dotsent M.K.Ismailov
p.f.b.f.d. (PhD), dotsent Z.A.Nazarova

Taqrizchilar: p.f.d., professor B.X.Xodjayev
p.f.d. (DSc), dotsent N.A.Achilov
p.f.d., prof. N.X.Oripova

Dastur Termiz davlat pedagogika institutining "Pedagogika" kafedrasining 2026-yil 26-avgustdagi № 1-sonli majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Mazkur dastur Termiz davlat pedagogika instituti Ilmiy-texnik kengashining 2026-yil "26" avgustdagi № 3-sonli majlisida muhokama qilinib, ma'qullangan.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekiston-2030 strategiyasi”da uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichini yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilarda ma’naviy madaniyatni qaror toptirish mexanizmlarini, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish muhim vazifalar etib belgilangan. Shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini ishlab chiqish, uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida ta’lim va tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishga e’tibor kuchaytirilmoqda.

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni hamda boshqa me’yoriy-huquqiy qonun hujjatlari asosida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Ixtisoslikning asosiy maqsadi – pedagogika ixtisosligi bo‘yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasi, ushbu fanning shakllanish va rivojlanish tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologik asoslari, manbalarini, mazkur bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, ilmiy materiallarni nechog‘lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotlar, shu jumladan, chet el davriy nashrlari hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko‘rsatib berishi lozim.

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihoni ilmiy pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o‘tkazishning tarkibiy qismidir. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha tuzilgan kirish imtihon dasturi umumiy pedagogika fanining bir tarmog‘i bo‘lib, u ilmiy xodimning yuqori malakali mutaxassis bo‘lishi uchun muhim bilimlarni o‘z ichiga oladi. Imtihon topshiruvchi-tadqiqotchi yuqori darajada nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi, pedagogika fanining boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan bog‘liq ilmiy metodologik masalalardan xabardor bo‘lishi, shu bilan birga u o‘z bilimidan ilmiy va amaliy vazifalarni to‘g‘ri hal etishda foydalanishi lozim.

Dasturning maqsadi – tadqiqotchilarda pedagogika fanining mohiyati, shakllanish bosqichlari, hozirgi holati, jamiyat hayotidagi o‘rni va hozirgi ta’lim jarayonlariga doir bilimlar bilan qurollantirish va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini takomillashtirishdan iborat.

Dasturning vazifasi – pedagogika nazariyasi fanining mazmuni, mohiyati va predmeti, shaxs tushunchasi, didaktika (ta’lim nazariyasi), ta’lim mazmuni, ta’lim metodlari va vositalari, ta’limni tashkil etish shakllari va turlari, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni, jamoa tarbiya obyekti va subyekti, tarbiyaning umumiy metodlari va turlari, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi, pedagogik menejment nazariyasi va

amaliyoti, pedagogik fanlar tizimi, sinfni boshqarish, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, pedagogika tarixining mazmun mohiyati, davrlashtirish muammolari, mutafakkirlarning ma'naviy merosi va pedagogik qarashlari, ta'lim-tarbiya tizimiga doir bilimlarni amaliyotda qo'llash, tahlil etish, o'rganish, aniqlash, ahamiyatini ochib berish.

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha tuzilgan kirish imtihon dasturining asosiy mazmuni

Pedagogika nazariyasi fanining mazmuni, mohiyati va predmeti.

Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalari. Pedagogik fanlarning tuzilishi. Pedagogik fanlar tizimi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif.

Pedagoglik kasbining jamiyatdagi o'rni.

O'qituvchi haqida tushuncha. O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. O'qituvchilik kasbining bugungi kundagi ahamiyati va roli.

Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida.

Shaxs haqida tushuncha. Shaxsning rivojlanishi. Shaxs rivojlanishining omillari. Bola shaxsi tarbiya obyekti va subyekti sifatida. Shaxs faolligi.

Yaxlit pedagogik jarayon.

Pedagogik tizimlar va ularning shakllari haqida tushuncha. Ta'lim tizimlariga umumiy tavsif. Yaxlit pedagogik jarayonning mohiyati. Pedagogik jarayon yaxlit hodisa sifatida. Pedagogik jarayonni yaratish shart- sharoitlari.

Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida.

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Didaktik kategoriyalarning mazmun mohiyati.

Ta'lim jarayoni yagona tizim sifatida.

Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim jarayoni mohiyati. O'rganish bilish faolligi shakli sifatida. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Sharq va G'arb mutafakkirlarining gnoseologik g'oyalari ta'lim jarayoni asosi sifatida. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim mazmuni.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalari. Ta'lim mazmunini tashkil etish konsepsiyasi. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti. O'quv rejasi. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari tavsifi.

Ta'lim metodlari va vositalari.

Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Sharq mutafakkirlari ta'lim metodlari haqida. Ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari.

Dars - maktabda ta'limni tashkil qilishning asosiy shakli. Ta'lim turlari. Ta'limni tashkil qilish shakllari haqida tushuncha. Ta'limni tashkil qilishning

an'anaviy sinf-dars shakli. Dars turlari va tuzilishi. Dars va dars mashg'ulotining bir-biridan farqli tomonlari. Ta'limni tashkil qilishning noan'anaviy shakllari: o'quv dialogi, munozara, didaktik o'yinlar, trening va boshqalar. O'quv ishlarini tashkil qilishning darsdan va ta'lim muassasasidan tashqari shakllari.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funktsiyalari. Ta'lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari. Metodik, didaktik, pedagogik talablarning mazmun-mohiyati. PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS xalqaro baholash dasturlarini joriy etishning me'yoriy huquqiy asoslari va ahamiyati.

Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.

Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati. Tarbiya jarayonining tizimi va tuzilishi hamda uning qonuniyatlari. Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya tamoyillari. Tarbiya turlari.

Jamoa tarbiya obyekti va subyekti sifatida.

Jamoa tushunchasi. Bolalar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. Bolalar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. Bolalar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Tarbiyaning umumiy metodlari.

Tarbiya metodlari mohiyati va uning tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish metodlari va xulq-atvorni tuzatish. Tarbiyada nazorat, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Aqliy tarbiya.

Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g'oyani shakllantirish o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. Aqliy tarbiya. Aqliy tarbiyaning maqsadi va mazmuni. Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish - aqliy tarbiyaning asosi.

Fuqarolik tarbiyasi. Huquqiy tarbiya.

Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari. Fuqarolik tarbiyasi funksiyalari. O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasi. Vatanparvarlik va baynalminallik fuqarolik tarbiyasi asosi. Huquqiy tarbiya. Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish - fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi.

Mehnat tarbiyasi. Iqtisodiy tarbiya.

Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Iqtisodiy tarbiya mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida.

Axloqiy tarbiya. Estetik tarbiya.

Axloq ijtimoiy ong, ta'sir etish va tarbiya shakli sifatida. Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Axloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Oilaviy hayotga axloqiy tayyorgarlik. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari.

Ekologik tarbiya. Jismoniy tarbiya.

Ekologik tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Ekologik tarbiyaning shakl va metodlari. O'quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Jismoniy tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.

Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'grisida"gi Qonuni. Uzluksiz ta'lim tizimi, uning tarkibiy qismlari va darajasi. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

Pedagogik menejment nazariyasi va amaliyoti.

Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni boshqarish. Ta'lim muassasasi Ustavi - rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Boshqaruv tushunchasi. Boshqaruv metodlari. Boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish. Pedagogik tizim tavsifi.

Ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish. Ta'lim muassasasida ichki nazoratni tashkil etish. Ta'lim sohasida attestatsiya. Talim jarayonini metodik boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ta'lim muassasasida ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va undan foydalanish.

Korreksion pedagogika asoslari.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Korreksion pedagogika turlari. Defektologiya fani va uning dolzarb masalalari. Sensor nuqsonli bolalar. Oligofrenopedagogika fanining bahsi va undan foydalanish uslublari. Inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy asoslari. Inklyuziv ta'lim tamoyillari.

Pedagogika tarixi fani haqida ma'lumot.

Fanning maqsadi va vazifalari. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo'lishi.

IX-XII asrlar Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi.

Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiya masalalari haqida tushuncha hosil qilish. (Xorazmiy, Farobiy, Fargoniy, Beruniy, Ibn Sino, Javhariy, Mavriziy, Jurjoniy va hokazo). Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim-tarbiya masalalari. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik", Kaykovusning "Qobusnoma" asari – pandnoma asar sifatida. Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar.

XII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda madaniyat, maktab va pedagogik meros.

XII asr oxiri XIV asrning birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xurosonda maktab va pedagogik meros. Najmiddin Kubro «Al-usul al-ashara», Fariduddin Attor «Mantiq ut-tayr», «Pandnoma», «Ilohiynoma», «Ushturnoma», Muslihiddin Sa'diy «Guliston», «Bo'ston», Sayfiddin Boxarziy ruboiylar, Jaloliddin Rumiy «Masnaviyi ma'naviy», Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy «Qissasi Rabg'uziy», Nosiriddin Tusiy «Axloqi Nosiriy», Aziziddin Nasafiy «Al-inson al-komil», Mahmud Shabustariy «Gulshani roz», Avfiy Buxoriy «Javomi ul-hikoyot», Pahlavon Mahmud

ruboiylar, Xusrav Dehlaviy «Xamsa», Ziyovuddin Naxshabiylarning «To'tinoma» kabi didaktik asarlari.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnahrda tarbiya va maktab.

Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. Movarounnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi. Mirzo Ulug'bekning pedagogik goyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari. Ulug'bek davrida maktab islohoti. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji.

Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi. Navoiyning o'qituvchi (mudarris) to'g'risidagi fikrlari. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. "Axloqi Jaloliy" asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni.

XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni. Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari - husnixatga doir dastlabki qo'llanma sifatida. Muhammad Sodiq Qoshgariyning "Odob as-solihin" asari - yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.

XIX asrning 2 yarmi XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta'lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi. V.P.Nalivkinning ta'lim rivojidagi xizmati. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari.

1917-1945 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.

Xalq maorifi sohasida maktab darsliklari va o'quv qo'llanmalar yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonini mustabid tuzum maqsadiga muvofiq tashkil etilishi va uning salbiy oqibatlari.

1945-1990 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

Maorif sohasidagi urushdan keyingi holatlar, tahlil. Maktab darsliklari yaratish, ta'lim-tarbiya jarayoninida maktablarning 4 yillik, 8 yillik, 9 yillik, 10 yillik islohotlarni maqsadga muvofiq tashkil etilishi va uning mazmun mohiyati.

Mustaqil O'zbeksiton Respublikasi ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji.

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun

Respublikamizda ta'lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari.

Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmigacha jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.

Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risida. Qadimgi Rimda pedagogik g'oyalar rivoji. G'arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlangich ta'lim metodikasiga qo'shgan hissasi. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

XIX asrning 2 yarmi - XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji.

XIX asrning oxiri XX asrda G'arbiy Yevropa, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo'nalishlari. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'g'risida. Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi.

Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

Jahon mamlakatlari ta'lim tizimi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. Ta'lim modellari. XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendensiyalar. Xalqaro loyihalar va ta'lim dasturlari.

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish savollari

1. Pedagogik fanlar tizimi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.
2. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlik jihatlarini tahlil qiling. Misollar keltiring
3. Tarbiyaning paydo bo'lishi va tarixiy rivojlanish mexanizmlarini yoriting.
4. Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigmalarini izohlab bering.
5. Ta'lim mazmuni: asosiy tushunchalari, shakllantirishga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish.
6. Ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagoglar yo'l qo'yadigan xatolarni tahlil qiling va ularning oldini olish bo'yicha o'z tavsiyalaringizni bering.
7. Ta'limni tashkil qilishning an'anaviy shaklini misollar yordamida tushuntiring.
8. Dars turlari va uning tuzilishini tahlil qiling.
9. O'quv jarayonini texnologiyalashtirishning jihatlarini keltirib o'ting. Uning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qiling.
10. Abu Rayhon Beruniyning ma'rifiy qarashlarini asarlari asosida tahlil qiling.
11. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishning yalpi (ommaviy) shaklini tahlil qiling.
12. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishning guruhli shaklini tahlil qiling.
13. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishning indvidual shaklini tahlil qiling.

14. Bozor munosabatlari sharoitida ta'lim muassasalarini rivojlantirish strategiyasini izohlang.

15. O'quv-tarbiya jarayonini nazorat qilish: turlari va funksiyalari, baholash mezonlarini tahlil qiling.

16. Pedagogika fanida yangi tarmoqlarning rivojlanish istiqbollarini tahlil qiling.

17. Davlat ta'lim standarti (malaka talabi) tuzilmasini tahlil qiling.

18. Metodlogiya tushunchasiga izoh bering.

19. Xalq og'zaki ijodi namunalari tahlilini misollar yordamida tushuntiring.

20. Ta'lim tizimining turlarini izohlang.

21. Oliy ta'limdan keyingi ta'limning tuzilishini tahlil qiling.

22. Pedagogik muloqot tavsifi, verbal va noverbal muloqotga misollar keltiring.

23. So'g'diyona, Xorazm va Baqtriyada ta'lim-tarbiyaning rivojlanish tarixini qiyosiy tahlil qiling.

24. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini tahlil qiling.

25. Kreativlik tushunchasi ta'rifini keltiring, va uning pedagogik psixologik asoslarini qiyoslang.

26. Bilimlarning ko'nikma va malakalarga aylanishi mexanizmlarini izohlang.

27. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining tahlil qiling.

28. Pedagogik texnika va uni shakllantirish usullarini tahlil qiling.

29. Zamonaviy jahon ta'lim tizimida kuzatilayotgan global tendensiyalarni aniqlang va ularni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qiling

30. Didaktikaning asosiy tushunchalari va tizimini tahlil qiling.

31. Xorijiy mamlakatlar tarbiya konsepsiyasining asosiy g'oyalarini tahlil qiling. Misollar keltiring.

32. Shaxs rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayonini izohlang.

33. 1917-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik qarashlarni tahlil qiling.

34. Pedagogika fanidagi ilmiy-metodologik yondashuvlarni izohlang.

35. Mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim tizimiga xorijiy tajribalarni joriy etish jarayonini izohlang.

36. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining mazmuni, shakllari hamda rivojlantirish yo'nalishlarini izohlang.

37. G'arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar tahlilini keltiring.

38. Faoliyat tushunchasi tarifi va uning asosiy tavsiflovichi belgilarini izohlang.

39. O'quv jaryoni funksilarini tahlil qiling.

40. Jamoa haqida tushuncha, uning xususiyatlari va vazifalarini izohlang.

41. Xorijiy davlatlar ta'lim modellari qiyosiy tahlil qiling.

42. Pedagogika fanining obekti va predmetini izohlang.

43. Testlar turlari va ularni qo'llash imkoniyatlarini tahlil qiling.

44. Pedagogikada gender xususiyatlarning o'ziga xosligini misollar yordamida izohlang.

45. Pedagogik tadqiqotlarda matematik modellashtirish tushunchasi mazmunini izohlang

46. Oila tarbiyasining ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqadorligini izohlang.

47. Oila pedagogikasi fanining maqsad va vazifalarini izohlang.

48. Oila pedagogikasini boshqa fanlar bilan aloqadorligini tahlil qiling.

49. Tarbiya jarayoni mazmuni va mohiyatini tahlil qiling.

50. Ta'limning tashkiliy shakllarini tahlil qiling.

51. Avtodidaktika tushunchasi va uning asosiy jihatlarini izohlang.

52. Impakt faktor tushunchasi, hisoblash metodikasi, afzallik va kamchiliklarini izohlang.

53. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tavsifi.

54. Aksiologiyaning fan tarmog'i sifatidagi mazmun-mohiyatini izohlang.

55. Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik omillarini izohlang.

56. Ta'lim muassasasi va pedagoglar kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishning me'yoriy huquqiy asoslarini izohlang.

57. Ta'lim metodlari va ularning asosiy turlarini tahlil qiling.

58. Neyropedagogika tasnifi va turlarini tahlil qiling.

59. Ta'lim mazmuni tamoyillari va o'zaro aloqadorligini tahlil qiling.

60. Ta'lim sifati menejmentining asosiy turlarini tahlil qiling

61. O'quv maqsadlarining mohiyatini tahlil qiling.

62. Ilmiy bilim, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malkalarini shakllantirish mexanizmlarini keltiring.

63. Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatining shakllantirilishining me'yoriy huquqiy asoslarini keltiring.

64. Inklyuziv ta'limni amalga oshirish mexanizmlarini izohlang.

65. Inklyuziv ta'lim – tarbiyani individual imkoniyatlarini tahlil qiling

66. Abu Nasr Farobiy asarlarida keltirilgan pedagogik qarashlarni tavsiflang

67. Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan pedagogik qarashlarni tavsiflang

68. Tajriba-sinov ishlarida validlik tushunchasini izohlang

69. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini rejalashtirishning mazmun-mohiyatini izohlang.

70. Pedagogikada fanlararo aloqadorlik g'oyalari va tamoyillarini tavsiflang

71. Prognostik tadqiqotlarning metodologik asoslarini izohlang

72. Pedagogik antropologiya va uning zamonaviy tendensiyalarini tavsiflang

73. Respublikamizda qo'shma ta'lim dasturining mohiyati, holati va istiqbollari haqida bayon qiling

74. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish va rivojlantirish texnologiyalariga misollar keltiring

75. Zamonaviy pedagogikaning innovatsion rivojlanish tendensiyalarini tavsiflang

76. Pedagogik tadqiqotlarning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini yoritib bering

77. Masofaviy va mediata'limni rivojlantirish omillarini bayon qiling

78. Ta'lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini tahlil qiling

79. Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish tamoyillarini ochib bering

80. Jismoniy tarbiya va sog‘lamlashtirishning zamonaviy pedagogik aspektlarini tahlil qiling

81. Jadidlar pedagogik qarashlarining ahamiyatini yoritib bering

82. Magistrlik dissertatsiyalarini rasmiylashtirish va metodologik asosini shakllantirishning ilmiy asoslarini bayon qiling

83. Pedagogik va psixologik bilimlarning didaktik aloqdorligini ochib bering

84. Pedagogik tadqiqotlar mantig‘ini tavsiflang

85. Yevropa va Osiyo Uyg‘onish davrida gumanistik g‘oyalarning shakllanishi haqida misollar yordamida bayon qiling.

86. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning mohiyati, tamoyillari, texnologiyalariga misollar keltiring

87. Ta’limda uzluksiz va uzviylik prinsiplarini ochib bering

88. Ta’limni tabaqalashtirish va indvidullashtirishning asosiy tamoyillari va usullarini misollar yordamida izohlang.

89. Amaliy pedagogikaning mohiyatini ochib bering.

90. Oliy ta’lim - fan va ishlab chiqarish integratsiyasini misollar yordamida izohlang.

91. Tarbiyalanuvchilarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyatini qiyosiy tahlil qiling.

92. Ta’limning texnikaviy vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini misollar yordamida ochib bering.

93. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, fuqarolik hissini rivojlantirishning pedagogik tamoyillarini izohlang.

94. Oila-mahalla-maktab hamkorligini tashkil etishning didaktik va metodik asoslarini bayon qiling.

95. Yoshlarda innovatsion fikrlashni rivojlantirish jarayonini boshqarishning pedagogik jihatlarini tavsiflang.

96. Qadimgi yunon faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va Demokrit) ta’limotida ta’lim-tarbiya masalalarini tahlil qiling.

97. Pedagogik loyihalashtirishning ilmiy ahamiyatini asoslang.

98. Ta’lim oluvchilarda mafkuraviy immunitet, yuksak insoniy faziflatlarni shakllantirishning pedagogik jihatlarini qiyosiy tahlil qiling.

99. O‘quv-metodik ta’minotni ishlab chiqishning pedagogik imkoniyatlarini asoslang.

100. Tarbiya jarayonining mohiyati va uni amalga oshirish tamoyillarini tahlil qiling.

101. Korreksion pedagogika asoslari. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari.

102. Sensor nuqsonli bolalar. Oligofrenopedagogika fanining bahsi va undan foydalanish uslublari.

103. Inklyuziv ta’lim siyosatining huquqiy asoslari. Inklyuziv ta’lim tamoyillari.

104. Pedagogika tarixi fani haqida ma’lumot. Fanning maqsadi va vazifalari. Eng qadimgi yozma manbalarda ta’lim-tarbiya masalalari.

105. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

106. VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

107. Islom dinining tarqalishi va uning ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Musulmon maktablari va unda ta’lim-tarbiya mazmuni.

108. Qur’oni Karim – axloqiy-falsafiy ta’limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo‘lishi.

109. IX-XII asrlar Sharq Uyg‘onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi.

110. Sharq uyg‘onish davri va unda ta’lim-tarbiya masalalari haqida tushuncha hosil qilish. (Xorazmiy, Farobiy, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Jurjoniy va hokazo).

111. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida ta’lim-tarbiya masalalari. Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asarida didaktik qarashlar.

112. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik”, Kaykovusning “Qobusnoma” asari – pandnoma asar sifatida.

113. XII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda madaniyat, maktab va pedagogik meros.

114. XII asr oxiri XIV asrning birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xurosonda maktab va pedagogik meros.

115. Muslihiddin Sa’diyning «Guliston», «Bo‘ston» asarlari va uning pedagogik qarashlari.

116. Jaloliddin Rumiy «Masnaviyi ma’naviy», Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziy «Qissasi Rabg‘uziy» kabi didaktik asarlarda pedagogik qarashlarning aks etishi.

117. Termiziy allomalarning pedagogik qarashlari mazmuni (Hakim at-Termiziy, Iyso at-Termiziy).

118. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnahrda tarbiya va maktab.

119. Ijtimoiy hayotning ta’lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta’siri. So‘fiylik ta’limotining ma’naviy hayotga ta’siri.

120. Movarounnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma’rifat rivojiga qo‘shgan hissasi.

121. Mirzo Ulug‘bekning pedagogik g‘oyalari va ma’rifatparvarlik xizmatlari. Ulug‘bek davrida maktab islohoti.

122. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

123. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji.

124. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo‘shgan hissasi.

125. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari.

126. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. “Axloqi Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o‘rni.

127. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

128. Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ta’lim-tarbiya (Maktab va madrasalarda ta’lim mazmuni. Qizlar maktabi va unda ta’lim mazmuni).

129. Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” asari - husnixatga doir dastlabki qo‘llanma sifatida.

130. Muhammad Sodiq Qoshgariyning “Odob as-solihin” asari - yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.

131. XIX asrning 2 yarmi XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

132. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta’lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi.

133. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi.

134. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari.

135. 1917-1945 yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.

136. O‘zbekistonda maorif sohasidagi Ikkinchi jahon urushidan keyingi holatlar, tahlil.

137. Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.

138. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo‘nalishlari.

139. Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmigacha jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.

140. Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya.

141. G‘arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

142. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlangich ta’lim metodikasiga qo‘shgan hissasi.

143. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi.

144. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

145. XIX asrning 2 yarmi - XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji.

146. XIX asrning oxiri XX asrda G‘arbiy Yevropa, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo‘nalishlari.

147. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to‘g‘risida. Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi.

148. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

149. Jahon mamlakatlari ta’lim tizimi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi. Ta’lim modellari.

150. XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendensiyalar. Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari.

Baholash mezonlari

1) talabgor javobi 90-100 ball bilan baholanishi uchun:
- savolda qo‘yilgan masala mohiyati to‘liq adekvat anglanishi;
- javob berishda mustaqil va ijodiy fikrlashi;
- qo‘yilgan masala boshqa masalalar bilan bog‘lab tushuntirilishi;
- savol mazmunidagi masalaga doir ilmiy va hayotiy misollar keltirishi;
- masala yuzasidan yirik tadqiqotchi olimlar mulohazalarini qiyoslash;
- ilmiy kategoriya va atamalar bilan erkin mulohaza yuritishi lozim.

2) talabgor javobi 70-89 ball bilan baholanishi uchun:

- savolda qo‘yilgan masala mohiyati to‘liq adekvat anglanishi;
- javob berishda ko‘proq reproduktiv yondashuv ustun bo‘lishi;
- qo‘yilgan masala boshqa yondosh masalalardan ayri holda tushuntirilishi;
- savol mazmunidagi masala yuzasidan faqat hayotiy misollar keltirilishi;
- savoldagi masala bo‘yicha faqat muayyan darslik va o‘quv adabiyotlari mualliflari fikrining esga olinishi;
- javob berishda ilmiy atamalardan erkin foydalanmaslik, ularning faqat bir ma’nosi haqida tasavvurga ega bo‘linishi kerak.

3) talabgor javobi quyidagi holatlarda 60-59 ball bilan baholanadi:

- savol mohiyatining yetarlicha adekvat anglanmasligi;
- javob berishda muayyan manbaga qattiq bog‘lanib qolishi;
- qo‘yilgan masalaning boshqa masalalar bilan aloqasi haqidagi yordamchi ishoralarga e’tiborsizlik kuzatilsa;
- savol mazmunidagi masala yuzasidan bildiriladigan mulohazalar faqat kundalik kuzatishlar natijalari bilan chegaralansa;
- javob berishda ilmiy atamalarning faqat ommalashgan ma’nolarining tushunilishi, ularning chuqur ilmiy mohiyatini anglamaslik.

Boshqa barcha holatlarda talabgor javobi 59 va undan past ball bilan baholanadi.

O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. https://lex.uz/uz/docs/-6445145 - 65 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni // – Toshkent: 23 sentyabr, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.
4. Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Darslik. - Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2010. - 400 b.
5. Xoshimov K. Pedagogika tarixi: Darslik. Q2/K.Hashimov, S. Nishonova. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. – 304 b.
6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazriyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. - 418 b.
7. Hasanboyeva O. va boshq. Pedagogika tarixi. Darslik. Mualliflar: O. Hasanboyeva, J. Hasanboyev, H. Homidov. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. 312 b.
8. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika (darslik). – T., «Fan va texnologiyalar», 2008. - 288 b.
9. Умарова, М.Х. Теория и истории педагогики [Текст]: учебное пособие для направления бакалавриата область образования 5110900 - Педагогика и психология/М. Умарова. – Т.: Чулпан. 2018. – 372 с.
10. Абдуллаева Ш.А., Зайнитдинова М.А., Халикова Г.И. История педагогики (Учебник). 2017, 258 стр.
11. Yo‘ldoshev O‘.J. tahriri ostida. Umumiy pedagogika. – T.: «Fan va texnologiya», 2017. - 376 b.
12. Нишонова С. Турдикулов Э.О. Педагогик атамалар луғати. – Т. “Фан” нашриёти, - 2008. – 198 б.
13. Калдибекова А.С. Умумий педагогика назарияси ва амалиётидан лаборатория машғулотлари. – Т., 2013.
14. Сластенин В.А. и др. Педагогика Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под. ред. В.А. Сластенина. - М.: «Академия», 2013. - 576 с.
15. Подласый И.П. Педагогика: Учебник. — М.: Высшее образование, 2006. – 540 с.

Elektron ta’lim resurslari:

16. www.multimedia.uz
17. www.ziyonet.uz
18. www.pedagog.uz
19. www.inter-pedagogika.ru
20. www.scholar.urs.as.ru/courses/Technology/intro.html
21. www.pedsovet.org